Vaxabova O‘g‘ilxon Tolibjonovna,
Andijom davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsent vazifasini bajaruvchisi

GLOBALLASHUV SHAROITIDA AXBOROT MUHITINING YOSHLAR IJTIMOIY NORMALARI SHAKLLANISHIGA TA’SIRINING PSIXOLOGIK JIHATLARI

UO’K: 159.9:316.6
HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2024_ISSUE_12_6

VAXABOVA O‘.T. GLOBALLASHUV SHAROITIDA AXBOROT MUHITINING YOSHLAR IJTIMOIY NORMALARI SHAKLLANISHIGA TA’SIRINING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Maqolada globallashuv sharoitida axborot muhitining yoshlar ijtimoiy normalari shakllanishiga ta’sirining psixologik jihatlari, yoshlarda ijtimoiy voqelikka munosabat idroki va uning talqiniga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash asosida ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tayanch so’z va tushunchalar: shaxs xulq-atvori, motivatsion komponent, munosabat, adaptiv munosabat, emotsional-kognitiv motivlar, stimullar, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar.

ВАХАБОВА У.Т. ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ВЛИЯНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ СРЕДЫ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ НА ФОРМИРОВАНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ НОРМ МОЛОДЁЖИ

В статье ставится задача разработать психологические аспекты влияния информационной среды на изменение социальных норм молодежи в условиях глобализации, научно-практические предложения и рекомендации, основанные на выявлении социально-психологических факторов, влияющих на восприятие молодежью отношения к социальной действительности и ее интерпретации.

Ключевые слова и понятия: личность, мотивационный компонент, установка, адаптационная установка, эмоционально-познавательные мотивы, стимулы, социально-психологические характеристики.

VAKHABOVA U.T. PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE INFLUENCE OF THE INFORMATION ENVIRONMENT UNDER GLOBALIZATION ON THE FORMATION OF SOCIAL NORMS OF YOUTH

The article aims to develop psychological aspects of the influence of the information environment on the change of youth social norms under globalization, scientific and practical proposals and recommendations based on the identification of socio-psychological factors affecting the perception of young people's attitude to social reality and its interpretation.

Key words and concepts: personality, motivational component, attitude, adaptive attitude, emotional-cognitive motives, stimuli, social-psychological characteristics.

Kirish. Jahonda axborot globallashuvi ta'siri tufayli yoshlarning ma'naviy dunyoqarashi, hayotiy maqsadi va strategiyalari, qiziqishlari, xulqi o'zgarishi, ayniqsa, ijtimoiy me'yorlarida turli transformatsiyalarning yuzaga kelishi odatiy holatga aylanib bormoqda. Bu borada yoshlarni g'oyaviy va axborot xurujlaridan himoyalash va unga qarshi immunitetni shakllantirish, yoshlar ijtimoiy me'yorlarini hisobga olishni o'rganish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda. Mazkur vaziyat muhim ijtimoiy-psixologik muammo sifatida «... axborot muhitining ta'siridan aziyat chekish insoniyatni talvasaga solayotganidan dalolat berishi»[1], shuningdek, Yoshlar xalqaro deklaratsiyasida qayd etilgan «Yoshlar – barqaror rivojlanish maqsadlarining drayveri» sifatida belgilanganligi», «axborot muhitini bevosita yoshlar psixologiyasiga ta'sirining psixologik xususiyatlarini internet orqali tarqatiladigan turli axborotlarning ijtimoiy me'yorlar o'zgarishiga ta'sirini aniqlash»[2] va voqelikka munosabatini tarkib toptirish masalasini yuzaga keltiradi. Bu borada yoshlar ijtimoiy me'yorlarini hisobga olish, ular xulq-atvorida ijobiy o'zgarishlarni shakllantirish muammosini yanada dolzarblashtiradi va ilmiy tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Respublikamizda so'nggi yillarda talaba-yoshlarning jamiyat taraqqiyotida ko'zda tutilgan ijobiy o'zgarishlarga daxldorlik hisini tarkib toptirish bo'yicha zarur huquqiy-me'yoriy asoslar yaratildi: «...jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash»[3] ustuvor vazifa etib belgilanib, talaba-yoshlarda ijtimoiy me'yorlar o'zgarishiga axborot muhitining ta'sirini psixologik tomonlarini tadqiq etish orqali «Yoshlarimiz ongiga salbiy ta'sir etuvchi, ularni g'oyaviy jihatdan qaram etishga yo'naltirilgan harakatlarga qarshi samarali kurash olib borish, irodali, fidoyi, vatanparvar va o'z mustaqil fikriga ega avlodni tarbiyalash bo'yicha amaliy chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish», «...yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash», ijtimoiy me'yorlari shakllanishiga axborot muhiti ta'sirining psixologik xususiyatlarini o'rganish[4]ning zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratilganligi mazkur muammoni ilmiy tadqiq etishni taqozo etadi va jamiyatimiz a'zolari bo'lgan yoshlar masalalarini ilmiy o'rganishga zarur asos bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydagi 837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2018-yil 27-iyuldagi PF-5466-son «Yoshlar - kelajagimiz» Davlat dasturi to'g'risida»gi, 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son «O'zbekiston Respublikasida Yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va Yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son «Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori hamda faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Yoshlarda axborot muhitining ijtimoiy me'yorlari o'zgarishiga ta'siri muammosi hozirgi globallashuv va axborotlashish masalalari ko'zga tashlanayotgan davrda ijti-

[1] https://cyberleninka.ru/article/n/axborot-xavfsizligi-va-uning-tashkil-etuvchilari-rsa-algoritmi

[2] https://kun.uz/55303868

[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF–60-son Farmoni. - https://lex.uz/docs/-5841063

[4] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son qarori. - https://lex.uz/docs/-3864155

moiy psixologiya fanida g‘oyatda dolzarb psixologik muammo hisoblanadi.

O‘zbekiston psixolog olimlaridan F.A.Akramova, S.N.Arifxanova, N.M.Dolimova, V.M.Karimova, J.Mirzayev, D.Muhiddinova, L.A.Nigmatulina, B.R.Qodirov, B.M.Umarov, N.S.Safaev, O‘.B.Shamsiev, G‘.B.Shoumarov, D.O‘rozboyeva, I.I.Raximova, S.B.Shukurov va boshqalar tomonidan yoshlarning psixologik muammolari, ijtimoiy munosabatlarda sog‘lom fikrlashi, o‘quv va mehnat faoliyati bilan band bo‘lishlari bilan birga ijtimoiy me’yor shakllanishi masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan G.M.Andreyeva, Yu.E.Aleshina, A.I.Antonov, N.N.Bogomolova, A.A.Bakanova, A.A.Leontyev, A.V.Petrovskiy, V.V.Skvortsov, E.P.Ilin, M.Sh.Magomed-Eminov, N.V.Grishina, S.I.Golod, O.A.Karabanova, N.N.Obozov, B.D.Parigin, Ye.V.Shoroxova va boshqalarning tadqiqotlarida axboriy tahdidlar va ularni oldini olishning ayrim ijtimoiy-psixologik masalalari ilmiy tadqiq qilingan.

Xorij tadqiqotchilaridan A.Adler, A.Bandura, A.Maslou, G.Olport, J.Rotter, Z.Freyd, K.G.Yung, K.Rodjers, K.Xorn, R.B.Kettel, E.Fromm, E.Erikson, P.Boennen, Ye.Burgess, R.Veyss, D.Vagen, M.Odema, G.Roland, L.Terman, E.Tiyd va boshqalar tomonidan axboriy-psixologik xavfsizlikning psixologik jihatlari, yoshlarda axboriy immunitetni shakllantirish muammolari, axborot muhitining yoshlar ijtimoiy me’yorlariga ta’siri ijtimoiy psixologik nuqtai nazardan tadqiq etilgan.

Tadqiqotning mazmuni yoshlar ijtimoiy me’yorlari shakllanishiga axborot muhiti ta’sirining psixologik xususiyatlarini ochib berish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talaba-yoshlarni ijtimoiy me’yorlari shakllanishida axborot muhitining o‘rni va ta’sirini ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma orqali ilmiy tadqiq etish;

globallashuv sharoitida «Ijtimoiy me’yor» shakllanishida yoshlarning axborot resurslari, internet muloqotiga jalb qilinganlik darajasi o‘rtasidagi funksiyalarni aniqlash;

axborot muhiti va talaba-yoshlar ijtimoiy me’yorlari shakllanishi virtual o‘zaro munosabatlar sohasini tadqiq etish;

yangi «Ijtimoiy me’yor» shakllanishi asosiy manbasi internet tarmog‘i ekanligiga oid o‘zaro transformatsiyani *tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish*.

Tadqiqot predmetini talaba-yoshlar axborot muhitining ijtimoiy me’yorlari shakllanishiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlar tashkil etadi.

Tadqiqot ob’yekti sifatida talaba-yoshlar axborot muhitining ijtimoiy

me’yorlari shakllanishiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlar jarayoni olingan bo‘lib, Andijon davlat pedagogika institutidan 245 nafar, Namangan davlat universitetidan 186 nafar va Farg‘ona davlat universitetidan 167 nafar, jami 598 nafar talaba-yoshlar respondentlar sifatida tadqiqotga jalb qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda suhbat, kuzatish metodlari, shuningdek, yoshlar ijtimoiy me’yorlari shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganish uchun mualliflik ijtimoiy-psixologik so‘rovnomasi - (IPS) (M.V.Xalimova, O‘.T.Vaxabova), O.S.Posipanovaning «Namoyishkorona e’tiborga moyillik» so‘rovnomasi[1], Kroun–Marlouning «Ijtimoiy talab shkalasi» so‘rovnomasi[2], R.Lazarus va S.Folkmanlarning «Xulq-atvorning hayotiy qiyinchiliklarga bardoshliligi» metodikasi[3], M.Rokichning «Qadriyatlar orientatsiyasi» metodikalari[4]dan foydalanildi. Olingan natijalarning ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan Styudentning t-mezoni, K.Pipsonning r-korrelyatsiya koeffitsienti orqali tasdiqlandi.

Tahlil va natijalar quyidagilardan iborat:

talaba-yoshlarni ijtimoiy me’yorlari shakllanishida axborot muhitining o‘rni to‘g‘risidagi nazariy qarashlar mavjudligiga ko‘ra, zamonaviy kontekstdagi konsepsiyalarning, «Ijtimoiy me’yor» shakllanishidagi etnopsixologik asosiy determinantlari mualliflik moduli asosida aniqlangan;

globallashuv sharoitida «Ijtimoiy me’yor» shakllanishiga yoshlarning axborot resurslari, internet muloqotiga jalb qilinganlik darajasi va xususiyatlari asosiy determinat ekanligi hisobidan, muloqotning kommunikativ, interaktiv va

[1] http://library.ziyonet.uz/uz/book/133128

[2] http://library.ziyonet.uz/uz/book/133128

[3] http://library.ziyonet.uz/uz/book/133128

[4] http://library.ziyonet.uz/uz/book/133128

pertseptiv tomonlariga kompensatorlik funksiyasi dominant xarakterda ekanligi aniqlangan;

axborot muhiti va talaba-yoshlar ijtimoiy me'yorlari shakllanishi virtual o'zaro munosabatlar sohasida sodir bo'lishi, xulq-atvor me'yorlari shakllanishi ushbu jarayonlari o'rtasidagi muntazam aloqalarga bog'liqligi dalillangan;

yangi «Ijtimoiy me'yor» shakllanishi asosiy manbasi internet tarmog'i ekanligiga ko'ra, axborot muhiti tanlovchanligi yoshlarning ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarida namoyon bo'lish xususiyatlari bilan o'zaro transformatsiyasi dalillangan.

axborot muhitining talaba-yoshlar ijtimoiy me'yorlari shakllanishiga ta'sirini aniqlash mualliflik so'rovnomasi ishlab chiqilgan va aprobatsiya qilingan;

yoshlarning axborot muhitida namoyon bo'ladigan xulq-atvor me'yorlari ko'rinishlari mualliflik modeli ishlab chiqilib, psixoterapevtik mashg'ulot va treninglar uchun asosiy manba sifatida didaktik ta'minot mazmuniga kiritilgan;

talaba-yoshlarning axborot muhitida ijtimoiy me'yorlari shakllanishi omillarini tadqiq etish orqali olingan natijalar asosida psixologlar faoliyatida psixokonsultatsiya jarayonida foydalana olishga oid dasturiy ta'minot ishlab chiqilib, amaliyotda qo'llangan.

Globallashuv sharoitida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining muhim omilidir. Bugungi kunda «globallashuv» va "axborot" so'zi eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalardan biridir. Biz butunlay axborot bilan o'ralgan dunyoda yashayapmiz. Globallashuv jarayonlari va axborot oqimining tezlashishi munosabati bilan bir qator muammolar yuzaga kelishi albatta tabiiy hol. Yoshlar psixologik kasalliklarning ayrim ko'rinishlaridan (nevrozlar, tushkunlik, qo'rquvlar, fobiyalar va boshqalar) shikoyat qiladilar va ularning sababi ko'pincha axborotlarning ko'p ekanligida ayon bo'ladi.


Axborot (lotincha "informatio" – tanishtirmoq, tushuntirmoq, bayon etish, sharq tillarida esa xabar (informatsiya), axborot degan ma'noga ega) bugungi fan, falsafa va siyosatning asosiy tushunchalaridan hisoblanib, avvalboshda kishilar tomonidan og'zaki, keyinroq yozma yoki boshqa shakllarda uzatilgan ma'lumot sifatida ta'rif va tasnif etilgan. Ya'ni axborotni turli ko'rinishlarda, masalan, og'zaki (tovushlar yordamida), yozma ravishda (matn orqali), harakatdagi rasmlar ko'rinishida (kino, video, animatsiya va boshqalar) ifodalash mumkin. Shu sababdan ajdodlarimiz axborotni har xil toshlarni turli shaklda joylashtirish yoki ularga chizish yordamida, so'ngra taxtachalarga, ishlov berilgan hayvonlar terisiga, papirus yaproqlariga axborotlarni yozish orqali saqlashgan. Keyinchalik axborot qog'oz, kitoblarda nashr etiladigan bo'ldi. Undan keyin esa mos qurilmalar kashf etilgan, axborotni saqlash uchun fototasmali, gramplastinka, hozirgi vaqtda turli disklar (egiluvchan, qattiq, kompakt va h.k.) qo'llanila boshlandi.

Axborot falsafada qadim zamonlardan buyon qo'llanib kelinayotgan, kibernetikaning taraqqiyoti tufayli keyingi vaqtda yangi, kengroq ma'no kasb etgan markaziy kategoriyalar sifatida maydonga chiqqan tushuncha. Axborot tushunchasi xususiy fanlar uchun umumiy bo'lib qoladi. G'oyalar yig'indisi va matematik vositalar kompleksini o'z ichiga olgan. Axborotga yondashuv esa umumilmiy tadqiqot vositasiga aylandi. Ma'lumot ma'nosidagi axborotning dastlabki tushunchasi XX-asrning o'rtalarigacha saqlandi. Kommunikativ vositalar taraqqiyoti munosabati bilan ehtimol metodlaridan foydalanishning kengayishiga qarab axborotlar soni o'sib bordi. Keyinchalik axborot matematik nazariyasining boshqa variantlari-tipologik, kombinatorlik va hokazo sintaktik nazariya degan umumiy nom oldi. Axborotning mazmuni va aksiologik tomonlari semantik va pragmatik qarashlar doirasida tadqiq qilinadi. Hozirgi zamon fanida axborot tushunchasining taraqqiyoti turli-tuman duyoqarashlar, falsafiy tushuntirishlarning paydo bo'lishiga olib keldi. O'tgan asr oxirida axborot voitalarining nihoyatda tez ko'payishi bu asrni axborot asri deb atalishiga sabab bo'ldi.

Tadqiqot Andijon davlat pedagogika institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Sohada ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash orqali ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan amaliy va innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish» mavzusidagi OT-F24-1-raqamli fundamental loyiha doirasida bajarilgan (2020-2023-yy.).

Tadqiqotni tashkil etishda oliy ta'lim muassasalarining talaba yoshlari respondent sifatida jalb etildi. Tadqiqot predmetini ochib ber-

1-rasm. Yoshlarning ijtimoiy tarmoqda mashhurlikka erishgan qahramonlar xulq-atvoriga taqlid etishi jihatlari.



1-jadval. O.S.Posipanovaning «Namoyishkorona e'tiborga moyillik» so'rovnomasi asosida jinslararo tafovutlari

Jins	N	O'rtacha	Dispersiya	T
Erkaklar	208	21,9	104,1	-4,002***
Ayollar	390	25,2	79,9	

Izoh:*p<0,05; **p<0,01; ****p<0,001.

ish hamda bugungi kunda yoshlar ijtimoiy me'yorlari shakllanishiga axborot muhitini ta'siri darajasini aniqlash uchun talaba-yoshlar o'rtasida ijtimoiy-psixologik so'rovnoma ishlab chiqildi. Ijtimoiy psixologik so'rovnoma yetti punktdan iborat bo'lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy me'yorlari shakllanishiga sabab bo'luvchi asosiy ijtimoiy-psixologik omillarning nisbatini tadqiq etishga yo'naltirilgan.

Ijtimoiy-psixologik so'rovnomamizning dastlabki qismida maqsadimiz ishtirokchilarimizning axborot muhiti yoshlar ijtimoiy me'yorlari shakllanishiga ta'sirini baholash bo'ldi. Olingan natijalar quyidagi 1-rasmda o'z ifodasini topdi.

So'rovnomamizda ishtirok etgan 598 nafar respondentlarning 67 foizi (401 nafar) yoshlarda namoyon bo'layotgan xulq-atvor me'yorlari shakllanishiga axborot muhitini ta'sirini «Yuqori darajada», 24 foiz (144 nafar) «O'rtacha darajada», 9 foizi (53 nafar) «Ahamiyatli darajada emas» javobini berdilar. Respondentlarning javoblarini sabablarini tahlil etganimizda aniqlandiki, respondentlar yangi texnologik imkoniyatlar turli ijtimoiy guruhlar, sinflar, kasblar, jins va yosh vakillarining o'zaro munosabatlar amaliyotidagi o'zgarishlar (bilim va ma'lumotlarning roli va o'rni o'zgarishi munosabati bilan) uchun asos bo'lganligi va bu birinchi navbatda ijtimoiy munosabatlarga, ijtimoiy o'zaro ta'sirning ijtimoiy tuzilishiga ta'sir qilganligini keltirib o'tishdi. Ijtimoiy munosabatlar tufayli turli ijtimoiy guruhlarning o'zaro ta'siri uchun axborot maydonlari paydo bo'layotganligini ham keltirib o'tishdi. Bundan tashqari axborot muhiti ijtimoiy munosabatlarning turli guruhlari bilan munosabat o'rnatish uchun yangi sharoit va mexanizmlarni yaratayotganligini ta'kidladilar.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, ayol talabalarda demonstrativ ijtimoiy me'yorlar erkak talabalarga nisbatan o'rtacha arifmetik qiymat statistik jihatdan ahamiyatli ravishda yuqori ekani aniqlandi (erkaklarda o'rtacha 21,9, ayollarda 25,2 $p \leq 0.05$). Har ikkala jins vakillarida dispersiyalar ko'rsatkichi erkaklarda 104,1, ayollarda 79,9 qiymatni ko'rsatdi. Styudentning t-qiymati esa -4,002 tashkil etdi.

Xulq-atvorda hosil bo'lgan ijtimoiy me'yorlar sakkizta shkala bo'yicha tahlili ko'zdan kechirilganda shunday natijalar olindi. Yoshlarda «qarama-qarshiliklar bilan kurashish» shkalasi masofa saqlash shkalasi bilan ijobiy munosabatlar ($r=0,34$; $p<0,05$), o'z-o'zini nazorat qilish shkalasi bilan ($r=0,17$; $p<0,05$) musbat munosabatlar kuzatildi.

«Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni so'rash» shkalasi qolgan shkaladagi tasdiqlar bilan ijobiy

2-jadval. R.Lazarus va S.Folkmanning «Xulq-atvorning hayotiy qiyinchiliklarga bardoshlilik» so‘rovnomasi natijalari, Pirson-r mezoni asosida

№	1	2	3	4	5	6	7	8
1	1							
2	0,34*	1						
3	0,17*	0,45*	1					
4	0,27*	-0,33*	0,36	1				
5	0,19*	0,29*	0,28*	0,36*	1			
6	0,32*	0,22*	0,15*	0,2**	0,29*	1		
7	0,18*	0,23*	0,38*	0,2**	0,32*	0,18*	1	
8	0,31*	0,31*	0,42*	0,25*	0,3**	0,22*	0,4**	1

Izoh: *p<0,05; **p<0,01; ****p<0,001;
jadvalda: 1- Qarama-qarshilik bilan kurashish; 2 - Masofa saqlash; 3 - O‘z-o‘zini nazorat qilish; 4 - Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni so‘rash; 5 - Mas‘uliyatni qabul qilish; 6 - Munosabatlardan qochish; 7 - Muammoni hal qilishni rejalashtirish; 8 - Ijobiy qayta baholash.

ma’noda bog‘liq ekanligini kuzatish mumkin bo‘ldi.

«O‘z-o‘zini nazorat qilish», «Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni so‘rash», «Masofa saqlash», «Mas‘uliyatni qabul qilish» shkalalari ham o‘zaro ijobiy korrelyatsiyani kuzatish imkonini berdi.

Xulosa va takliflar. Ijtimoiy psixologik so‘rovnoma[1] natijalari bo‘yicha quyidagi **muayyan xulosala**r chiqarishimiz mumkin bo‘ldi.

1. Ijtimoiy me’yorlarni shakllantirishning asosiy manbalaridan biri ijtimoiylashuv jarayon bo‘lib, shaxs jamiyatda muvaffaqiyatli moslashishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, qadriyatlar va xulq-atvor me’yorlarini o‘zlashtirilishini bildiradi, u axborot muhitida faol kechmoqda.

2. O‘zaro ta’sir va muloqot. Ijtimoiy me'yorlarni shakllantirishda boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabat va muloqot ham muhim rol o‘ynaydi. Muloqot orqali jamiyatda qanday me’yorlar mavjudligi, turli vaziyatlarda qanday xulq-atvor kutishlari mavjudligini bilib olinadi. Ijtimoiy me’yorlarni moslashtirish va qabul qilishga yordam beradi, bugungi kunda aksariyat hollarda ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘zaro ta’sir va muloqot ko‘rinishida kechmoqda.

3. Ijtimoiy institutlarning ta’siri. Oila, maktab, din, ommaviy axborot vositalari va boshqalar kabi ijtimoiy institutlar ham ijtimoiy me’yorlarning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ular o‘zlarining qoidalari, urf-odatlari va an'analari orqali muayyan qadriyatlar va xatti-harakatlar me’yorlarini yetkazadilar. Bu institutlar esa bugun bugungi kun talabi bilan internet olamida juda faol ravishda axborotlar oqimida qatnashmoqda.

4. Madaniy va tarixiy omillar. Ijtimoiy me’yorlarning shakllanishiga madaniy-tarixiy omillar ham ta’sir ko‘rsatadi. Madaniyat ma’lum bir jamiyatda muhim deb hisoblangan qadriyatlar va me’yorlarni belgilaydi. Muayyan xulq-atvor me’yorlarining shakllanishiga tarixiy voqealar va an’analar ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin, bugungi kun zamonaviy tarixi esa to‘laqonli axborot muhitida kechmoqda.

Axborot muhitining yoshlar ijtimoiy normalari o‘zgarishiga ta’sirining psixologik jihatlarini aniqlash mavzusida o‘tkazilgan tadqiqotdan olingan natijalar asosida **quyidagi xulosalar** ishlab chiqildi:

1. Axborot muhitining yoshlar ijtimoiy normalari o‘zgarishiga ta’sirining psixologik jihatlarini aniqlashda xulq-atvor turlariga qaytish bo‘lgan regressiya paytida almashinish sodir bo‘lishi aniqlandi, bu esa o‘z navbatida asabiy vaziyatning ta’siri ostida paydo bo‘lgan hissiy bosimni anglatadi, lekin bu yengillik yoki maqsadga erishishga olib kelmaydi. Bunday vaziyatda sub’ekt ichki keskinlikni buzadigan, kutilmaganda ma’nosiz harakatlarni amalga oshirishi mumkin, ammo shu vaqtning o‘zida haqiqat idrok etilgan holda tashqi tomondan bu harakat sezilmasligi mumkin.

2. Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, (qiz) yoshlarda, shuningdek, (o‘g‘il) yoshlarda ham ijtimoiy muhitda ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik ularning o‘z- o‘zini borligicha qabul qilishlari, shuningdek boshqalarni ham qabul qilishlari, hissiy qulaylikni his etishlari, yuqori darajadagi sub’ektiv nazoratga ega ekanliklarining

[1] http://library.ziyonet.uz/uz/book/133128

ko‘rsatkichidir, bu kabi o‘sprinlar ular bilan sodir bo‘ladigan voqealarni, birinchi navbatda, ularning shaxsiy fazilatlari (kompetensiya, qat’iyatlilik, qobiliyat darajasi va boshqalarga) va o‘z faoliyatlarining tabiiy oqibatlarining natijasi deb hisoblashishlari isbotlandi;

3. Tadqiqot jarayonida yoshlarning o‘zini o‘zi baholashning ijtimoiy- psixologik xususiyatlarini va psixologik himoya mexanizmlarini aniqlash usullari yuzasidan ishlab chiqilgan mualliflik so‘rovnomasi asosida qaltis vaziyatlarda o‘sprinning o‘zini o‘zi baholashi va xulq-atvor reaksiyasi o‘rtasidagi bog‘liqliklar mavjud ekanligi tasdiqlandi.

Tadqiqot natijalari asosida pedagoglar va amaliyotchi psixologlar uchun quyidagi **amaliy tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Talabalar va ularning ota-onalari uchun bir necha bosqichda ma’rifiy profilaktika tadbirlarini o‘tkazish zarur. Bu borada ommaviy axborot vositalari, ota-onalar, ta’lim muassasalari hamkorligini amalga oshirish maqsadlidir.

2. Ta’lim muassasalari rahbariyati ijtimoiy maslahatchilar, psixologlar va ijtimoiy xodimlar uchun ommaviy axborot vositalarining yosh avlodning psixik salomatligiga salbiy ta’siri oqibatlari to‘g‘risida talabalarni xabardor qilishga qaratilgan maxsus ishlab chiqilgan kurs yoki dasturni yaratishni ta’minlashi kerak.

3. Universitet psixologlari, tyyutorlari va ota-onalar uchun tushuntirish va profilaktik maslahatlardan iborat mahorat darslaridan foydalanish kerak.

4. Ota-onalar farzandlari foydalanadigan ommaviy axborot vositalarining ko‘lamini kuzatib borishlari, bu ommaviy axborot vositalari o‘z oilasi qadriyatlariga mos kelishini ta'minlashlarida sergak bo‘lishlari maqsadlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Butunjahon Yoshlap halqapo deklapatsiyasi. - T.: 2019. b-14.

2. O‘zbekiston Pespublikasi Ppezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning tapaqqiyot stpategiyasi» PF-60-son Fapmoni, https://lex.uz/docs/5841063

3. Sh.M.Mirziyoev. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambeliyasidagi nutqi. 19.09.2017 y

4. O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi.

5. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. – T.: 2010. - 544 b.

6. SHoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. – T.: Sharq, 2010. - 283 b.

7. Vaxabova O‘.T. Socio-psychological factors of the influence of information intelligence on human behavior Innovative // Society: Problems, Analysis and Development Prospects (Spain) Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Ispaniya. 10.05.2024 // - P. 4-5.

8. Vaxabova O‘.T. Ijtimoiy me’yorlarni tushuntirishning turli tartiblari sababiy bog‘liqligi. // Raqamli iqtisodiyot davrida uzluksiz ta’lim: innovatsiya va istiqbollar Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Andijon. 2023. - B. 45-49.